

mahalla” tizimi asosida siyosiy partiyalarning jamoatchilik bilan doimiy va maqsadli aloqasini yo‘lga qo‘yish lozimligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga bo‘lib o‘tgan saylovlardagi Saylovoldi dasturining “Davlat, jamiyat qurilishi va sud-huquq sohasida ijtimoiy tenglik hamda ijtimoiy demokratiya” bandlarini ishlab chiqilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashining 2019 yil 9 dekabrda 1-962-son dalolatnomasi). Natijada ijtimoiy-iqtisodiy hayotning eng muhim jabhalari, aholining hayotiy ehtiyojlariga daxldor bo‘lgan va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg‘otadigan masalalar bo‘yicha ijro hokimiyati tomonidan qaror qabul qilishda, parlamentdagi siyosiy partiyalar fraktsiyalari hamda Xalq deputatlari mahalliy Kengashlaridagi partiya guruhlarini bilan majburiy jamoatchilik maslahatlarini o‘tkazish mexanizmini joriy etish, davlat xizmatlari markazlari negizida “elektron hukumat” tizimi asosida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga qonun loyihalari va turli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni jamoatchilik muhokamasi va jamoatchilik ekspertizasidan o‘tkazish jarayonida erkin qatnashish imkonini beradigan shoxobchalar tashkil etish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Report of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the extended meeting of the Cabinet of Ministers on the main results of the socio-economic development of our country in 2016 and the most important priorities of the economic program for 2017
2. President Shavkat Mirziyoyev's speech at the 4th congress of the "Kamolot" youth social movement
3. President Shavkat Mirziyoyev's speech at the video selector meeting with representatives of the chambers of the Oliy Majlis, political parties and the Ecological Movement of Uzbekistan

UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA TALABA – YOSHLARNI XALQ PEDAGOGIKASI ASOSIDA KASBGA QIZIQTIRISHDA BIRINCHI RENESSANS DAVRI ALLOMALARINING ILMIY MEROSIDAN FOYDALANISH

Qahhorova Malika Lutfullayevna
O‘zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uchinchi Renessans sharoitida yoshlarni kasbga qiziqtirish maqsadida Birinchi Renessans davri allomalarining ilmiy merosidan foydalanish haqida fikrlar bildirilgan. Ajdodlarimizning kasb haqida va kasb uchun kerak bo‘lgan zaruriy jihatlari to‘g‘risidagi qarashlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Kasb, Renessans, “Muallimi soniy”, Abu Rayxon Beruniy, Aziziddin Nasafiy, ruhiyat, rizq, halolik.

THE STUDENT IN THE CONDITIONS OF THE THIRD RENAISSANCE - INTERESTING YOUTH IN THE PROFESSION BASED ON FOLK PEDAGOGY USING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF THE SCIENTISTS OF THE FIRST RENAISSANCE PERIOD

Abstract: In this article, in the conditions of the Third Renaissance, opinions are expressed about the use of the scientific heritage of scholars of the First Renaissance in order to interest young people in the profession. The views of our ancestors about the profession and the necessary aspects necessary for the profession are described.

Key words: Profession, Renaissance, "Teacher Sani", Abu Raikhan Beruni, Aziziddin Nasafi, spirituality, sustenance, honesty.

СТУДЕНТ В УСЛОВИЯХ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА - ИНТЕРЕСНАЯ МОЛОДЕЖЬ В ПРОФЕССИИ НА ОСНОВЕ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ УЧЕНЫХ ПЕРВОГО РЕНЕССАНСА

Аннотация: В данной статье в условиях Третьего Возрождения высказываются мнения об использовании научного наследия учёных Первого Возрождения с целью заинтересовать молодёжь профессией. Описаны взгляды наших предков на профессию и необходимые для профессии аспекты.

Ключевые слова: Профессия, Возрождение, «Учитель Сани», Абу Райхан Беруни, Азизиддин Насафи, духовность, средства к существованию, честность.

Har bir millat dunyoda o‘ziga xos boy tarixga ega va shu millat vakillari o‘z madaniy merosidan foydalanishga va ajdodlarga munosib avlod bo‘lishga harakat qiladi, doim shonli tarixidan g‘ururlanadi. Davlatimiz rahbari bugun har sohada o‘ziga xos o‘zgarishlar bilan bir qatorda xalqimiz farovonligi uchun bor kuch g‘ayratini ayamadan keng ko‘lamli ishlar olib bormoqda. Bugun har birimizga juda tanish bo‘lgan hattoki, millat taqdiriga befarq bo‘lmagan vatandoshlarimiz va har bir yosh uchun bugun bir ibora “Uchinchi Renessans davrini yaratish” tanish albatta. Mamlakatimizda renessans davrini yaratish g‘oyasi tashabbuskori Muhtaram yurtboshimiz o‘zining asarlarida quyidagicha **renessans** so‘ziga ta’rif bergan:

“...xalqlar tarixida o‘ziga xos tub yangilanish davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi, o‘z salohiyatini namoyish etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak cho‘qqilarga ko‘tariladi. Nisbatan qisqa davrda erishilgan ulug‘ marralar jahon ahlini lol qoldiradi. Ayni bir xalq salohiyatining ulkan natijasi bo‘lgan olamshumul yutuqlar esa insoniyat tarixining yorqin sahifalariga aylanadi, dunyo silvizatsiyasi tarixiga katta kuch va shiddat beradi.

Yer yuzidagi ba'zi xalqlarga nasib etadigan bunday yuksak ko'tarilish va taraqqiyot zamonlarining o'ziga xos Uyg'onish, ya'ni Renessans davri, deb atalishining asosiy sababi ham shunda"[4].deya ta'riflagan edilar.

Ko'pchilikka ma'lum renessans (yangi, uyg'onish) atamasi ilk bor Italiyada XIV – XVI asrlarda sodir bo'lgan madaniy va ma'naviy yuksalishga nisbatan qo'llanilgan. Bu hodisa o'sha davrlardagi ya'ni o'rta asr turg'unchiligidan yangi davrga o'tganligiga, ilm-u fanning rivojlanganligiga nisbatan qo'llanilgan. Qadimdan har bir sohada yetakchi bo'lgan Sharqda xususan Movounnahrda bu davr Yevropa mamlakatlaridan V asr oldin, IX asrdayoq boshlangan va islom madaniyati orqali dunyoviy bilimlarni egallash ko'rinishida namoyon bo'lgan edi. Bu davr yurtimiz hududidan bir qator olimlarni yetishib chiqardiki butun dunyo hanuz ularning bilimidan ular qoldirgan keng ilmiy merosdan foydalanib kelmoqda.

Shu davrda yetishib chiqqan olimlarimizning falsafa, tibbiyot, algebra, astronomiya, geometriya va ko'plab fanlar haqida qator bilimlar berishdi, "Sharq renessansi"i davrida ajdodlarimiz yozib qoldirgan manbalardan ko'pgina zamonaviy fan asoslarini yaratib ketganligi, turli sohalarga oid bilimlarni kengaytirganligi hech kimga sir emas albatta. Shu davrda yashab o'tgan ajdodlarimizdan: Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Abu Hamid Usturlobiy, Abu Ali Ibn Sino, Najmiddin Kubro kabi olimlarni ko'plab sohalarga oid asarlar yozishdi boy ilmiy meros qoldirishdi.

Xalq orzusi Aziziddin Nasafiy, Abu Mu'in Nasafiy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Zangi ota Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi aziz-avliyo bobolarimizni tarbiyaladi, ularning kamolotida va ezgu faoliyatida o'ziga xos ma'naviy tayanch bo'ldi[5].

Aynan shu davr "Islom madaniyatining oltin asri" deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g'ururi hisoblanadi"[5].

Biz bu ilmlardan oqilona foydalangan holda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishimiz zarur. Yoshlarni ilmli kasb-hunarli qilishda boy ilmiy merosimizdan foydalanishimiz ularni har tomonlama aqlli salohiyatli qilib tarbiyalashda, hayotda o'z o'rniga ega bo'lishlari uchun albatta ularning har biri kasb-hunarga ega bo'lishi va shu kasbini sevib kasbi orqasidan turmushini farovon qilishi albatta vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shishi tabiiy albatta. Bu boradagi bilimlarni kengaytirish va ularga kasbga bo'lgan muhabbatni oshirish borasida ham ilmiy merosimizdan foydalanishimiz shart. Chunki bilimsiz shu bilan birga kasb-hunari yo'q yoshlarni jamiyatimizdan iloji boricha sonini kamaytirish, o'z o'rnini topish uchun shart-sharoatlarni yaratishimiz zarurdir.

Bu borada Birinchi Renessans davri allomalarining asarlarini o'rganish orqali ham kasbning hayotimizdagi nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini, yoshlarda kasbni egallashda zarur bo'lgan fazilatlar, jihatlar borligini anglaymiz.

“Birinchi Renessans” davri mutafakkirlaridan biri Aziziddin Nasafiyning ham o‘rni beqiyosligini alohida ta’kidlashimiz lozim.

Xususan komil inson haqidagi fikrlari bilan jamiyat hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun yoshlarga kerak bo‘lgan fazilatlarni Aziziddin Nasafiy oq-qorani ajratib olgan yoshdan farzand uchun farz bo‘lgan amallarni oltiga bo‘ladilar va ularni har biriga nom berib ta’rif beradilar.

1. Imon. 2. Amri ma’ruf 3. Nahyi munkar 4. Tavba 5. Ro‘zg‘orini ta’minlashga yaraydigan kasb-hunarni egallamoq. 6. Taqvo deb atadilar. Aynan aqlini tanigan yosh uchun komillik belgilarini zohir qilish uchun beshinchi qismida kasb egallashning zarurligini quyidagicha izohladi. Kasb egallashdan yana bir maqsad ta’madan xoli bo‘lishdir. Chunki iymon salomatligiga zararlarning bosh sababchisi ta’madir [2] deya kasb qilish biror hunar bilan shug‘ullanishning ahamiyatini ta’ma deb esa kishilardan yordam kutish, boqimanda bo‘lish kabi illatlarni yo‘qotish uchun zarurligini bildirib o‘tar ekan, oxirgi qism ya’ni taqvo qismida yuqoridagi qismning mantiqiy davomi o‘laroq har qanday kasbni egallagan inson kasbida halollik bo‘lishiga e’tibor berishi kerakligini quyidagicha izohlab berdilar. Kasb egallashda harom luqmadan, birovning molidan, shubhali rizqdan, davlat moli hamda zolim kimsalarning saxovatidan ehtiyot saqlash lozim. So‘z amalda ogoh bo‘lib, ixlos bilan yashamoq hamda riyo va hasaddan saqlanmoq kerak. Nasafiy kasbning halolligi haqidagi fikrlarida kasb qilish zarurligini anglash juda oson.

Birinchi Renessans davri allomalari nafaqat o‘zlarining boy ijodi bilan balki hayot yo‘llari bilan ham bizga namuna o‘rnak bo‘la oladi. Abu Rayxon Beruniy bu nom Birinchi Renessans davri allomalari haqida so‘z ketganda Beruniy siymosisiz tasavvur qila olmaymiz sababi Beruniy butun dunyoda shuhrat topgan bobolarimizdan biridir. Zero jahon hamjamiyati Abu Rayxon Beruniy siymosini qadrlaydi. Beruniy o‘z hayoti haqida yozgan xotiralarida Abu Abdulloh Nuos ismli kishi haqida shunday hikoya qiladi. “...musiq va hunarda tengi yo‘q kishi edi. Bir kuni safarga chiqqanida qattiq bo‘ron turdi. Bo‘ron shiddatidan tuyalar qochib ketdi. Abu Nuos qismatiga pushaymon bo‘lib yo‘lida davom etadi” deb hikoya qiladi hikoyada aytilishicha Abu Nuos ko‘rlar yashaydigan manzilga borib o‘z dunyo ranglari go‘zal manzaralar xullas dunyo haqida so‘zlab beradi. Ular esa uning so‘zlariga ishonmay kaltaklab sahroga olib borishadi. So‘ng taqdirga afsus chekib yo‘lida davom etgan ekan. Keyin boshqa qishloqqa boradi u qishloqdagi kishilar kar ekan. “Shoyad anglab yetishsa deb ularga musiqiy nimaligini bildirish uchun urinadi. Ular ham do‘pposlab qishloqdan haydab yuborishdi”. Shu vaqtda shunday she‘r aytdi.

“Oqil ersang, ko‘rlarning bozorida oyna sotma, karlarning orasida g‘azal aytma”[1]. deb aytgan ekan. Bu she‘rdan ko‘rinib turibdiki inson kasb-hunarni tushunadigan insonlar orasida ko‘rsatishi qadrllovchilar uchun so‘zlarini aytishi kerak ekan. Abu Rayxon Beruniy Renessans davri olimlari uchun shart-sharoitlarini yaratishda davlat boshqaruv hokimiyatining ahamiyati yuksak bo‘lgan. Misol uchun Beruniy dahosini yaratishda ham Mahmud G‘aznaviyning

xizmatlari katta bo'lgan. Beruniy qatori yuzlab olimlarning yetishib chiqishi uchun har bir sohada o'z kasbini ilmini rivojlantirishda katta hissa qo'shgan edi.

Yana bir buyuk "Birinchii Renaissance" davri olimlaridan biri Abu Nasr Forobiy qomusiy olim uning shaxsiga qo'yiladigan eng yuksak ta'riflardan biri "Muallimi soniy" ya'ni Ikkinchi muallim deb e'tirof etilgan edi. Sababi ko'plab sohalarga o'ziga xos hissasini qo'shgan. Fozil odamlar shahri kitobida kasb-hunarli bo'lishda kerak bo'lgan fazilatlar, qaysi kasbni tanlash, kasb qilish zaruriyati, kasbni puxta egallash muhimligi misollar yordamida tushuntirilgan, alohida bob ko'rinishida yozilgan. Forobiyning kasb-hunarli bo'lgan inson uchun kerak bo'lgan fazilatlar haqida to'xtalib xattotlar misolida izohlashga urinadi. "...odamlarning fe'li yomon bo'lganligi uchun hunarlari ham ularning ko'ngli yomonligini tuzata olmaydi. Yomon xattot badbaxtligi tufayli yozuvi ham tobora xunuklashib boraveradi"[3]. Forobiy shu fikrlarini xulosa qilib insonning ruhiyatidagi nuqsonlar turli xil axloqsizliklar bora-bora kasb-hunarga ham ta'sir qilishini aytadi. Sababi har qanday ruhiyatdagi kamchiliklar insonlarning fe'llariga axloqsizlik bo'lib o'tadi va o'zining ishida ham aksini ko'rsatadi. Shu sababli inson har bir ishida unum bo'lishi uchun ruhiyatida ezguliklar haqida o'ylashi fikrlashi muhim ekan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yoshlarimizning kasb-hunarli bo'lishi, kasbga sadoqatli inson uchun yurtimizda barcha shart-sharoitlar yaratilgan shu bilan bir qatorda boy ilmiy merosimizda ham manbalar yetarli biz ulardan oqilona foydalanishimiz ularga munosib avlod bo'lishimiz zarur. Chunki bugun rivojlanayotgan davrda zamonnig o'zi bizdan o'z kasbimizni chuqur egallashimizni talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Abu Rayxon Beruniy" Isajon Sulton. T-2023.
2. Aziziddin Nasafiy "Komil inson kitobi" G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa jodiy uyi, 2021.
3. "Fozil odamlar shahri" Abu Nasr Forobiy. T-2016.
4. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Sh. M. Mirziyoyev. Toshkent-2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 1-oktabr O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan 30.09.2020.